



SOLIQ NAZORATI VIDEOTASVIRGA OLINADI VA SOLIQ TO'LOVCHIGA TAQDIM ETILADI



Manba: O'RQ-758, 11.03.2022-y.

@huquqiyaxborot_lotin



Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimchalar kiritildi

Tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun naqd pul mablag'lari bilan yoki plastik kartochkalar bo'yicha hisob-kitob shakliga qarab, ularning **narxlarini sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish BHMning 30 baravari miqdorida** jarima solishga sabab bo'ladi – 8 mln 100 ming so'm



Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaslik hamda soliq va yig'implarni to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini xizmat ko'rsatayotgan bankka taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik Soliq organlarining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan holda yuridik shaxsning rahbari va yakka tartibdagi tadbirkorning **ma'muriy javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi**



Soliq kodeksiga soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligini ta'minlashga qaratilgan **o'zgartirishlar kiritildi**



Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligi **videotasvirga olish qurilmalaridan foydalanish** vositasida, bunday imkoniyat mavjud bo'lmaganda esa xolislar ishtirokida amalga oshiriladi



Videotasvirni yozib olish to'xtovsiz va izchil ravishda olib boriladi. Videotasvir materiallarining ko'chirma nusxasi soliq to'lovchiga yoki uning vakiliga soliq nazoratiga oid tadbir tugagach taqdim etiladi